

100 GACHA BO‘LGAN SONLARGA 10 NI QO‘SHISH

Mukaramova Dilfuza Raximjon qizi

Namangan viloyati Yangi Namangan tumani

69-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu dars ishlanmada 1-sinf o‘quvchilariga matematika fanidan “**100 gacha bo‘lgan sonlarga 10 ni qo‘shish**” mavzusida bir soatlik ochiq dars ishlanma interfaol usullar yordamida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sonlar, qo‘shish, kompetensiyalar, bilim, ko‘nikma, mashq, masala.

100 gacha bo‘lgan sonlarga 10 ni qo‘shish**Dars maqsadi:**

- 100 gacha bo‘lgan sonlar jadvaliga sonlarni joylash;
- sonlar jadvalidagi qonuniyatni aniqlash;
- turli usullar yordamida 100 gacha bo‘lgan sonlarga 10 ni qo‘shish;
- jadvaldan sonlarni topish.

Asosiy tushunchalar

- 100 gacha bo‘lgan sonlar
- sonlarga 10 ni qo‘shish
- 10 tadan sanash

Didaktik materiallar

- sonli kartochkalar (har bir o‘quvchi uchun)
- 100 gacha bo‘lgan sonlar jadvali (har bir o‘quvchi uchun)

Standartlar

O‘BTD.M.01.A.QA.1100 ichida bir yoki ikki xonali sonlarni turli usullardan foydalanib qo‘shish

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

T/R	Darsning bosqichlari	Dars taqsimoti vaqti
1	KIRISH QISMI	5 daqiqa
2	ASOSIY QISM	40 daqiqa

Darsning borishi.

KIRISH 5 daqiqa

KUN MASHQI 5 daqiqa

Kalendar: O'quvchilardan bugungi sana va faslni so'rang.

Sanash: O'quvchilar 30 dan 50 gacha 4 tadan tashlab sanaydi.

Mashq: "Keyingi sonni top" mashqi. O'quvchilardan mashqni juftlikda bajarishini so'rang. 1-o'quvchi 120 gacha bo'lgan sonlardan istalgan bittasini aytadi, 2-o'quvchi shu sondan keyingi sonni aytadi.

Mashq shu tariqa davom ettiriladi.

Bugungi darsimizda o'quvchilar 2 guruhga bo'lingan holda bilimlarini sinovdan o'tkazadilar.

1-guruh:

2-



guruh:

"Bilimdonlar"

"Zukkolar"

Guruh a'zolari har bir to'g'ri javob uchun bir meva tasvirini qo'lga kiritadilar va o'z guruhlari uchun ajratilgan savatga soladilar. Dars oxirida savatdagi mevalar sanalib, g'olib guruh aniqlanadi va o'quvchilar baholanadi.



ASOSIY QISM 40 daqiqa

Misolni ko'rsatish va mustaqil ish 5 daqiqa

Bugun biz siz bilan 100 gacha bo'lgan sonlarga 10 ni qo'shishni o'rganamiz.

Doskaga 32 sonini yozing. O'quvchilardan shu songa 10 sonini qo'shib, natijani sonli kartochkalar orqali ko'rsatishlarini so'rang.

Muhokama 15 daqiqa**1-QISM O'quvchilar javoblari bilan o'rtoqlashadilar.**

Kamida 3 nafar o'quvchidan sinfga javoblarni topish jarayonini tushuntirishini so'raladi.

Natija nechaga

Javobni qanday

Kimdir misolni boshqa usulda yechdimi?

Tushuntirish modeli

32 ga 10 ni qo'shganda, natija 42 ga teng bo'ldi. Qo'shishni bajarish uchun 32 sonidan keyin 10 ta sanash yoki xona birliklariga ajratib, o'nliklarni alohida, birliklarni alohida qo'shish mumkin. Hosil bo'lgan son esa berilgan sondan 10 ta ko'p. O'nliklar xonasi bittaga farq qilyapti. Xato javoblarni muhokama qilish boshqa maktabda tahsil olayotgan o'quvchi menga 10 sonini qo'shganda, natijani faqat sanab topish mumkin, dedi. Shu javobga siz nima deysiz? To'g'rimi yoki noto'g'ri? Nima uchun? Bu o'quvchiga nima deb javob bergan bo'lar edingiz?

O'quvchilarga to'g'ri javob berish va xatoni tushuntirishda yordam bering.

2-QISM: Misol va yangi topshiriq**Muhokama mavzusi**

-100 gacha bo'lgan sonlarga 10 ni qo'shish;

Misolni o'quvchilarning tavsifiga asosan ibtushuntiring yoki doskaga yozing.

-100 gacha bo'lgan sonlar jadvalini doskaga iling yoki darslik ilovasidagi jadvaldan foydalanishlarini ayting.

Keling, bugun siz bilan 100 gacha bo'lgan sonlarga 10 ni qo'shishni o'rganamiz.

- Hammamiz 10 dan boshlab 10 tadan sanash mashqini bajaramiz: 10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100, 110.

- Bundan aytishimiz mumkinki, har qanday songa 10 ni qo'shganimizda, sonlar jadvalida bir qator pastga tushishimiz kerak ekan. Agar jadvaldan 30 ni topib, 10 ni

qo'shsak, natija nechaga teng bo'ladi? Demak, 30 ning tagida, bitta keyingi qatorda joylashgan son – bu 40.

- Endi 15 dan boshlab 10 tadan sanaymiz. Buning uchun jadvaldan foydalanish mumkin.

- 15 sonini topamiz va 10 ta sanab, keyingi sonni topamiz: 25, 35, 45, 55, 65...

- 15 dan boshlab 10 tadan sanaganda, qanday qonuniyatni kuzatdingiz? Faqat o'nlik xonasi bittaga o'zgardi. Birlik esa o'zgarmay qoldi. Yoki jadvalga qaraymiz. Unda har bir qatorda bittadan o'nlik o'zgaryapti. 25 sonining tagidagi qator keyingi o'nlik qatori. 25 ning tagidagi son 35. Demak, $25 + 10 = 35$

- 15 ga 10 ni qo'shishning yana qanday usullarini bilasiz? 10 – bu bitta o'nlik. 15 sonida ham bitta o'nlik bor. Demak, avval o'nliklar, so'ng birligini qo'shamiz: $15 + 10 = 10 + 10 + 5 = 25$

- 25 sonini ham xuddi shu tartibda bajarish mumkinmi? Ha, unda ham 2 ta o'nlik va 5 ta birlik bor: $20 + 10 + 5 = 35$

Amaliy topshiriq 15 daqiqa

- O'quvchilarga 1-topshiriqda berilgan sonlarga 10 ni qo'shib, natijani jadvaldan belgilashini ayting.

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
41	42	43	44	45	46	47	48	49	50
51	52	53	54	55	56	57	58	59	60
61	62	63	64	65	66	67	68	69	70
71	72	73	74	75	76	77	78	79	80
81	82	83	84	85	86	87	88	89	90
91	92	93	94	95	96	97	98	99	100

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
41	42	43	44	45	46	47	48	49	50
51	52	53	54	55	56	57	58	59	60
61	62	63	64	65	66	67	68	69	70
71	72	73	74	75	76	77	78	79	80
81	82	83	84	85	86	87	88	89	90
91	92	93	94	95	96	97	98	99	100

2-topshiriqda berilgan sonlarga 10 ta qo‘shib sanashlari va hosil bo‘lgan sonlarni yozishlarini aytiladi.

“**Kim topqir**” usuli bunda yordam beradi. 2-topshiriqda berilgan sonlarga 10 ta qo‘shib sanashlari va hosil

bo‘lgan sonlarni yozishlarini aytiladi.

10 ta qo‘shib sanang va yozing.

a) $22 \rightarrow 32$ b) $38 \rightarrow 48$ d) $82 \rightarrow 92$

3-topshiriqda berilgan ifodani hisoblashlarini aytiladi.

Hisoblang. Ushbu topshiriq ham yozma bajarilib, o‘quvchilar baholanadi. Bunda “Zukko matematik” o‘yinidan foydalanish mumkin.

a) $20 + 10 = 30$ b) $40 + 10 = 50$ d) $80 + 10 = 90$

O‘qituvchining kuzatishlari

O‘quvchilar topshiriqni bajarayotganda, 100 gacha bo‘lgan sonlarga 10 sonini jadvaldan foydalangan holda qo‘shib, ifoda tuza oladi. O‘qituvchi o‘quvchilar topshiriqni yechganda, 100 gacha bo‘lgan sonlarga 10 sonini to‘g‘ri qo‘shganiga e‘tibor berishi kerak. Agar o‘quvchi topshiriqni yengillik bilan bajarayotgan bo‘lsa, unda 62, 83, 15, 41 sonlariga 10 ni qo‘shib, natijani 1-topshiriqdagi jadvaldan topib bo‘yasin. Agar topshiriqning ko‘p qismi to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, shu topshiriqni bajarishda davom etaversin. Agar topshiriqni bajarishga qiynalayotgan bo‘lsa, unda jadvaldan foydalanib yechnin.

VI .Darsga yakun yasash (butun sinf) 5 daqiqa

Darsga yakun yasash va o‘quvchilarni baholash. Dars so‘ngida o‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi va g‘olib guruh aniqlanib, rag‘batlantiriladi.

Darsga yakun yasash.

Uyga vazifani tushuntiring.

3.Hisoblang.

a) $27 + 10 =$ b) $10 + 52 =$
d) $35 + 10 =$ e) $10 + 47 =$